

QONUNCHILIGIMIZDA SURROGAT ONALIK SHARTNOMASINI TARTIBGA SOLISHNING DOLZARB MASALALARI (TEZIS)

Jamshid Abdullayev

Jamoat xavfsizligi universiteti

mustaqil izlanuvchisi,

“Adliya a’lochisi”.

Email:jamshidb003fb@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7037714>

Ma’lumki, surrogat onalik shartnomasi qonunchiligimizda nomlanmagan notipik xususiyatga ega shartnoma turi sifatida e’tirof etiladi. O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 5-moddasiga ko’ra fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan munosabatlar qonunchilik yoki taraflarning kelishuvi bilan to’g’ridan to’g’ri tartibga solinmagan hollarda fuqarolik qonunchiligining o’xshash munosabatlarni tartibga soluvchi normasi qo’llanilishi (qonun o’xshashligi) belgilangan. Agarda, ko’rsatib o’tilgan hollarda qonun o’xshashligidan foydalanish mumkin bo’lmasa, taraflarning huquq va burchlari fuqarolik qonunchiligining umumiy negizlari va mazmuniga (huquq o’xshashligiga) hamda halollik, oqillik va adolat talablariga amal qilgan holda belgilanadi. Mazkur masalada bir qator tadqiqotchilarning bu masalani asoslantiruvchi fikrlari mavjud.

Jumladan, A. Aslamurzayeva tomonidan “shubhasiz, surrogat onalik shartnomasidan kelib chiqadigan nomulkiy munosabatlar O’zbekiston Respublikasining oila qonunchiligi qoidalari bilan tartibga solinishi kerak.” -deb fikr bildiriladi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda qonunchilikda tartibga solinishi lozim munosabatlar doirasida surrogat onalik shartnomasida birinchi navbatda, surrogat onalik munosabatlaridan foydalangan holda tug’ilgan bolalarning huquqiy holatini belgilashi masalalari, shuningdek, tomonlarning huquqlari muvozanatini va himoyasini ta’minlashi kerakligiga haqli ravishda e’tibor qaratishi lozimligi alohida ta’kidlanadi. Lekin ko’rib chiqilayotgan shartnoma doirasida vujudga keladigan mulkiy munosabatlar o’z mohiyatiga ko’ra munosabatlarning fuqarolik-huquqiy xususiyatiga yaqindir. Bizningcha, shartnoma esa ularning shakli sifatida fuqarolik huquqiga ko’proq tanish bo’lgan huquqiy tuzilma bo’lib, hech qanday tarzda ularning oilaviy huquqiy mohiyatini yo’qotmaydi.

Shunday qilib, shartnoma doirasida rivojlanayotgan munosabatlarni ikki yondashuv asosida ko’rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Binobarin, bu munosabatlarga ham fuqarolik, ham oila qonunchiligining qo’llanilishi haqidagi

fikr ancha asosli ko'rinadi. Tadqiqotchi S.Y. Chashkova surrogat onalik shartnomasini "fuqarolik huquqi munosabati, lekin oilaviy munosabatlarni tartibga solish sohasiga qo'shni, mazkur shartnoma fuqarolik va oilaviy huquq chegarasida" deb belgilaydi. Mazkur masalada bizningcha tadqiqotchining fikri o'rinli hisoblanadi.

Surrogat onalik munosabati juda ko'p bahsli muammolarni keltirib chiqaradi. Amalda, surrogat ona bola tug'ilgandan keyin bolani genetik ota-onaga berishdan bosh tortgan holatlar ko'p uchraydi. Bunday holat mazkur munosabatni huquqiy tartibga solishni va qonunchilik normasini mukammal ishlab chiqishni taqozo etadi. Normalardagi kamchiliklar genetik ota-onalar huquqlarining himoyasizligi zamonaviy qonunchilikning dolzarb muammosidir. Surrogat onalikning ayrim muhim muammolari surrogat onalik shartnomasi yordamida hal qilinishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, surrogat onalik shartnomasining huquqiy tabiati, konsepsiyasini ilmiy izlanishlar asosida tahlil etish bilan bir qatorda mazkur shartnomaning shakli va tuzish tartibini ham alohida yoritish, muammoli jihatlarini tadqiq etish o'rinlidir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligiga muvofiq bitimlarning 2(ikki)ta shakli mavjud: "Bitimlar og'zaki yoki yozma (oddiy yoki notarial tasdiqlangan) shaklda tuziladi."

Og'zaki shakl tomonlarning og'zaki yoki ularning xatti-harakatlaridan kelib chiqadigan roziligini nazarda tutadi, xususan, xizmat ko'rsatish amalga oshirayotganda sukut saqlash tomonlarning kelishuvini ko'rsatadi.

Yozma shakl tomonlarning hujjatni tuzish va imzolash majburiyatida ifodalanadi. Notarial tasdiqlash tomonlarning hujjatni tuzish va imzolash majburiyatida ham ifodalanadi, ammo bunday hujjatni notarius tomonidan tasdiqlash zarurati shaklida qo'shimcha shart ham yuzaga keladi.

O'zbekistonda surrogat onalik shartnomasi alohida, mustaqil shartnoma turi sifatida ajratilmaganligi sababli, uning shakli ko'rsatilmagan. Fikrimizcha, amalda bunday shartnoma odiy yozma shaklda yoki notarial tasdiqlangan yozma shaklda tuzilishi oqilona va to'g'ri deb baholanadi.

Ammo surrogat onalik shartnomasi haq evaziga qoplanadigan (to'lov asosida) xususiyatga ega bo'lsa, u holda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 108-moddasi 2-bandiga binoan, "fuqarolar o'rtasidagi belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan ortiq summadagi bitimlar, qonunda belgilangan hollarda esa — bitim summasidan qat'i nazar, boshqa bitimlar odiy yozma shaklda tuziladi".

Bunday holda, shartnomaning yozma shakliga rioya qilmaslik oqibatida nizoli vaziyatlar yuzaga kelsa, taraflar bitimni, shuningdek uning shartlarini tasdiqlashda uchinchi shaxslarning ko'rsatmalariga murojaat qilish (guvohlantirish) huquqiy munosabatidan mahrum bo'ladi.

Surrogat onalik munosabatini tartibga solishning huquqiy asoslarini tahliliy o'rganish jarayonida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, surrogat onalik to'g'risidagi shartnomaning majburiy yozma shaklini qonuniylashtirish zarurati shartnoma shaxsiy, shuningdek, maxfiy xususiyatga ega ekanligida va tomonlarning qo'shimcha majburiyatlarini keltirib chiqarishida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, surrogat onalik shartnoma shartlari yozma ravishda tasdiqlanmagan taqdirda, tomonlar og'zaki ravishda biron bir shart bo'yicha kelishuv yo'qligi asosida muammoli vaziyatga duch kelishlari mumkin.

Uchinchidan, tomonlar notarial tasdiqlangan yozma bitim tuzmagan holatda, tomonlar qabul qilingan xizmatlar hajmi, ularning mazmuni va boshqalar to'g'risida yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lmasliklari uchun imkoniyat paydo bo'ladi. Surrogat onalik to'g'risida yozma kelishuvning yo'qligi tomonlarni xizmatlar ko'lami, ularning haqiqiy farqlari, tugatilish vaqti, shuningdek, turli tartib-qoidalarni amalga oshirish bilan bog'liq ko'plab shartlar va omillarni batafsil belgilash imkoniyatidan mahrum qiladi, shuningdek, amaliyotda yozma bitim tuzilmasligi surrogat onalik shartnomasini taraflar tomonidan turlicha talqin qilinishi holatini keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 2-songa ilova.
2. Асламурзаева А. Суррогатное материнство: пробелы законодательства / А. Асламурзаева // ЭЖ-Юрист. – 2011.
3. Журавлева С. П. Правовая природа договора на суррогатное материнство / С. П. Журавлева // Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. – М. – 2010.
4. Чашкова С.Ю. Система договорных обязательств в российском семейном праве: автореферат ... канд. юрид. наук / С.Ю. Чашкова. – М., 2004.